

SO'FI OLLOYORNING "SABOTUL OJIZIN" ASARIDA "HAR BIR ISHDA YETUK USTOZ ISTAMAK" G'OYASINING TASAVVUFIY-AXLOQIY TALQINI

Shokirova Maxsuma Jo'rabek qizi

Farg'ona davlat universiteti

Filologiya fakulteti o'zbek tili yo'nalish 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada So'fi Olloyorning "Sabotul ojizin" asarida bayon etilgan "Har bir ishda yetuk ustoz istamak" g'oyasining tasavvufiy-falsafiy ildizlari, murshid-murid munosabati, ilm egallash jarayonida ustozning o'rni, shuningdek ushbu konsepsiyaning pedagogik va axloqiy mazmuni ilmiy asosda tahlil qilinadi. G'oya o'zbek pandnoma an'anasi, islom ma'rifiy manbalari va tasavvufiy suluk tizimi kontekstida izohlanadi.

Annotation: The article analyzes the mystical and philosophical roots of the idea of "desiring a master in every matter", expressed in Sufi Olloyor's work "Sabotul ojizin", the murshid-murid relationship, the role of the teacher in the process of acquiring knowledge, as well as the pedagogical and moral content of this concept on a scientific basis. The idea is explained in the context of the Uzbek pandnama tradition, Islamic educational sources, and the mystical leuk system.

Аннотация: В статье анализируются мистико-философские корни идеи «желания господина в каждом деле», выраженной в произведении суфия Оллоёра «Саботул оджизин», взаимоотношения муршида и мюрида, роль учителя в процессе получения знаний, а также педагогическое и нравственное содержание этой концепции на научной основе. Данная идея раскрывается в контексте узбекской традиции панднама, исламских образовательных источников и мистической системы лейк.

Kalit so'zlar: tasavvuf, murshid, murid, ruhiy kamolot, suluk, nafs-u havo, fano, pir, ergashuvchi, yo'l boshchi, yetuk ustoz.

Key words: Sufism, murshid, murid, spiritual perfection, leech, passion, fano, pir, follower, guide, accomplished teacher.

Ключевые слова: Суфизм, муршид, мюрид, духовное совершенство, пиявка, страсть, фано, пир, последователь, наставник, опытный учитель

Kirish:

O'zbek mumtoz adabiyoti tarixida So'fi Olloyor (1644–1724) o'zining tasavvufiy-didaktik ruhdagi asarlari bilan alohida o'rin egallaydi. Shoirning eng mashhur asarlaridan biri — “Sabotul ojizin” (“Ojizlarning saboti, matonati”) diniy-axloqiy pandnomalarning yirik namunasi bo'lib, xalq orasida keng yoyilgan, hatto madrasa va maktablarda darslik sifatida qo'llanilgan. Asar nafaqat tasavvufiy adabiyot tarixida, balki xalq tarbiyasida ham yuksak ahamiyatga ega bo'lib, bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan. Asarning bosh g'oyasi — insonning kamolot sari intilishi, nafsni poklash, axloqni yuksaltirish, Allohga muhabbat va banda – Xoliq munosabatining sof shaklini qaror toptirish.

Asarning badiiy xususiyatlari quyidagilar bilan ifodalanadi:

1. Tasavvufiy ramzlar

Asarda “nafs”, “ruh”, “haqiqat”, “shariat”, “tariqat”, “ma'rifat” kabi tasavvufiy kategoriyalar ramziy ma'noda qo'llangan.

2. Didaktik uslub

Shoir ko'proq nasihat, pand, o'git shaklida fikr yuritadi. O'quvchiga bevosita murojaat qiladi:

“Odam bo'lg'il, odam alardin aziz,

Nafsni yengmoqdin o'tmish ulgan g'araz.”

3. Qur'on va hadisga tayanganlik

Asarning asosiy manbai islomiy manbalar bo'lgani sababli matnda ko'plab diniy iqtiboslar uchraydi.

4. Hikoyatlar va rivoyatlar

Shoir pandu nasihatni mustahkamlash uchun turli ibratli hikoyatlar keltiradi. Bu uni xalqchil qiladi.

5. Tili xalqona, ravon, o‘qishli

Asar xalq orasida keng tarqalganining asosiy sababi — uning sodda, ravon tilda yozilganidir.

Tasavvuf falsafasida ustoz (murshid, pir, shayx) shaxtsiz yoki tasodifiy tanlanadigan shaxs emas, balki muridning ruhiy kamolot safarida bosh yo‘lboshchi sifatida qaraladi. So‘fi Olloyor “Sabotul ojizin” asarida aynan shu masalaga alohida urg‘u beradi. Asarning “Har bir ishda yetuk ustoz istamak” mazmunidagi bobida insonning ilm, hunar, ibodat va tasavvufiy sulukda muvaffaqiyatga erishishi ustoz qo‘lida tarbiya topish bilan bog‘langan holda talqin qilinadi. Bu g‘oya nafaqat diniy-ma‘naviy hayot, balki jismoniy mehnat, kasb-hunar, ijtimoiy faoliyatning ham barcha sohasi uchun universal tamoyil sifatida keltiriladi. Ustozsiz yo‘l — noto‘g‘ri yo‘l; ustozli yo‘l — najot manzili, deya ta’kidlanadi. Tasavvufda ustozga ergashish zarurati quyidagi diniy asoslardan kelib chiqadi; Qur’onda: “Agar bilmasangiz, ahli zikrdan so‘rang” — ilm egasiga murojaat qilish talab etiladi; hadisda: “Kimning shayxi bo‘lmasa, uning shayxi — shayton” mazmunidagi hikmatlar mavjud. Shoir ta’lim olgan Naqshbandiya tariqatida:

1. murshid — ma‘naviy tarbiya beruvchi,
2. murid — unga to‘liq ishonib yo‘lga kiruvchi,
3. suhbat — tarbiyaning asosiy vositasi sifatida qaraladi.

So‘fi Olloyor ustozlik mavzusini faqat nazariy-didaktik ko‘rinishda emas, balki badiiy obrazlar orqali ham yoritadi. Masalan, shoir ustozni “yo‘lovchi uchun yo‘lboshlovchi”, “qorong‘uda chiroq”, “jaholat g‘oridan olib chiquvchi qo‘llar” tarzida tasvirlaydi. Ustozsiz ish — hosilsiz ekin. Ustozsiz harakat qilgan shaxs esa adashuvga moyil, nafs tuzog‘iga osongina tushadigan, ilmidan baraka topmaydigan sifatida talqin etiladi. Shoirning fikricha, ustozga ergashish nafsni jilovlaydi, kibrni sindiradi va insonni haqiqiy kamolotga boshlaydi. Shuningdek, So‘fi Olloyorning fikriga ko‘ra, ustoz: halol

rizqli, niyati pok, ilmni Alloh rizosi uchun o'rgatuvchi, o'zini emas, Haqni ko'rsatishga xizmat qiluvchi bo'lishi lozim. Bu tasavvufda "komil inson" talqiniga to'la mos keladi. Nafs bilan kurashda inson mustaqil g'olib bo'lolmaydi — shoirning fikri shu.

Xulosa:

"Sabotul Ojizin" asarida har bir ishda yetuk ustoz istash g'oyasi nafaqat amaliy hayotiy maslahat sifatida, balki tasavvufiy-axloqiy konsepsiya sifatida ham yoritilgan. Muallifning fikricha, insonning ruhiy kamoloti va haqiqatga yetishi ustozning yo'l-yo'riq ko'rsatishi bilan chambarchas bog'liq. Yetuk ustoz shaxsga ilm, hikmat va tarbiya beradi, uni nafaqat dunyoviy bilimga, balki ichki poklik, sabr-toqat va halollik kabi axloqiy fazilatlarni shakllantirishga yetaklaydi. Shu tarzda, har bir ishni muvaffaqiyatli amalga oshirish, shaxsning ruhiy o'sishi va jamiyatda mas'uliyatli shaxs bo'lib yetishish ustozning tarbiyaviy roli bilan bog'liq ekanligi maqolada aniq ko'rsatib berilgan. Umuman olganda, "Sabotul Ojizin" g'oyasi bugungi kunda ham tarbiya jarayonida ustoz-murabbiyning ahamiyatini, shaxsiy va ijtimoiy kamolot yo'lida bilim va axloqiy yo'nalishning zarurligini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rahmonqul Orzibekov. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar Uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006.
2. So'fi Olloyor. Sabot ul-ojizin (Nashrga tayyorlovchilar: Hoji Po'latqori Muhammad Ali, Mahmud Hasaniy, Mirsolih Qosim). Toshkent: Mehnat, 1991.
3. So'fi Olloyor. Sabot ul-ojizin. (Nashrga tayyorlovchi: Rashid Zohid). - Toshkent: Cho'lpon, 1991.
4. So'fi Olloyor. Sabotul ojizin sharhi, Ravoyihur Rayhon (Nashrga tayyorlovchi: Rashid Zohid). Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2021.